

PAPER

LISONIY PARADIGMALAR

Meliboyeva Marhabo Sharipovna ^{1, *} and Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi ²

¹QDU O'zbek tili kafedrası katta o'qituvchisi and ²QDU O'zbek va rus filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi

* meliboeva@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada lison va pardigma atamalariga ta'rif berilgan. Bugungi kunda ularning tilshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, lisoniy paradigma turlarining o'zaro farqli jihatlari misollar orqali ochib berilgan.

Key words: Lison, paradigma, nutq, lisoniy paradigma, pozitsiya.

Kirish

Har qanday sistema tarkibiy qismlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Til ham sistema sifatida pog'onaviy ichki tuzilishiga ega bo'lib, har bir pog'ona birliklari, ayni paytda o'zaro uzviy munosabatda bo'ladi. Sistemaviy tilshunoslik asoschisi shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur lisoniy birliklarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan (Nurmonov, 2012, 96-bet).

Lison deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda birliklarning o'zaro birikish qonuniyati tushuniladi. Lisonda birliklar va birikish qonuniyatlari farqlanadi. Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli bo'ladi. Shu bilan birga ular ikki tomonning bir butunligidan iborat:

- Lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;
- Lisoniy birlikning ma'lum bir vazifasi, ma'naviy qiymati.

Har bir lisoniy birlik bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o'] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi dabdurustdan [q] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim unlilar va undoshlar tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar esa undoshlar tizimida eslata oladi. Eslatish ikki tomonlama ham bo'lishi mumkin. Masalan, [yuz] leksemasi bir tomondan [bet], [chehra], [jamol], [oraz] kabi birliklarni, ikkinchi tomondan [burun], [quloq],

[ko'z], [qosh] leksemalarini eslatadi va u ikki tizimning a'zosi hisoblanadi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xshash belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi. Ana shu o'xshashlik va umumiylik ularning birlashtiruvchi, bog'lab bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Umumiy belgilari asosida bir-birini taqazo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma deyiladi.

"Paradigma" atamasi grekcha «paradeigma» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarjimasi «namuna, misol, model» degan ma'noni bildiradi. Paradigmani tashkil etuvchi birliklar paradigma a'zolari deb yuritiladi. Paradigma kamida ikkita a'zoli va bir lisoniy sathga mansub bo'lishi shart. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat, paradigmatic munosabat deyiladi. Birinchi marotaba "paradigma" atamasi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Ferdinand de Sossyur tomonidan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan elementlar sinfini belgilash uchun ishlatilgan (Safarov, 2008, 285-bet).

U ilmiy izlanishlari natijasida lisoniy mikrosistema va umuman lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o'xshashlik) munosabatlarini lisoniy birliklar uchun eng asosiy munosabat sifatida baholaydi.

"Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a'zolar ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur;
- Har bir konkret nutq sharoiti o'zaro paradigmatic munosabatlarda turgan birliklardan, ya'ni paradigma a'zolaridan

bitta tanlanishi lozim;

– Bir paradigmanning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga, har biri o'zaro ikkinchisidan qaysidir belgisi bilan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi lozim;

– Paradigma a'zolari nutqda bir pozitsiya (mavqe) da kela olib, bir-birini ma'lum holatlarda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin”.

Lisoniy paradigma va uning a'zolariga nisbatan Ferdinand de Sossyur tomonidan qo'yilgan bu talablar keyingi qariyb yuz yildan beri o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Paradigmalar, qamroviga ko'ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmalar bo'linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsiz undoshlarga bo'linadi, unlilar lablangan va lablanmagan unlilarga bo'linadi.

Demak, paradigmatic munosabat atamasining muqobillari sifatida o'xshashlik munosabati, assosiativ munosabat atamaları ham ishlatiladi. Tizim atamasi ham ko'p hollarda paradigma atamasi o'rnida ishlatiladi: unlilar tizimi, undoshlar tizimi, kelishik tizimi, egalik tizimi, shaxs-son, tizimi, zamon tizimi, mayl tizimi kabi. Undoshlar tizimidagi jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigmalar bo'lib undoshlar tizimi bir butun butun holda ularga nisbatan “katta yoki tashqi paradigma” deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra paradigmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Fonetik paradigmalar;
- Leksik paradigmalar;
- Morfologik paradigmalar.

Ular gapdagi vazifasi, ifoda-maqsadi va semantik xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Aytilganidek, fonemalar tizimi va ularning ichki bo'linishlari fonologik paradigmalar deyiladi. Fonologik paradigmalarining xususiyatlari, uni tashkil etuvchi birliklarning paradigmatic munosabatlari xususida Fonetika-fonologiya” bo'limida bahs yuritiladi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo'lgan leksik birliklar leksik (lug'aviy) paradigmalarini tashkil etadi. Sinonimik, antonimik, giponimik, iyerarxionimik, graduonomik, funktsionimik qatorlarga birlashgan leksamalar tizimi alohida lug'aviy guruhlar, lug'aviy-mazmuniy to'da, so'z tukumlari ham yirik (makro) paradigmalarini tashkil etadi. Leksik paradigma va ularda amal qiluvchi paradigmatic munosabatlar haqida Leksikologiya-semasiologiya” bo'limida bahs yuritiladi.

Morfologik kategoriyalar (morfologik shakllar tizimi) morfologik paradigmalaridir. Morfologik shakllarning paradigmatic munosabati haqida tilshunoslikning Morfologiya-morfemika bo'limida batafsil to'xtalinadi.

Sintaktik qoliplar tizimi sintaktik paradigmalarini tashkil etadi. Sintaktik paradigma ikkiga gap paradigmasi va so'z birikmasi paradigmasiga bo'linadi. Gap paradigmasining o'zi ikki sodda gap qoliplari va qo'shma gap qoliplari kabi ichki (mikro) paradigmalariga bo'linadi. Bunday paradigmatic munosabatlar xususida Sintaksis bo'limida bahs yuritiladi.

4. Rahimov, A. (2012). Tilni paradigmalar asosida o'rganish muammolari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent– № 2. B–20.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov, A. (2012). Tanlangan asarlar Toshkent: Akademiya nashr. B–96.
2. Hakimov, N. (1992). O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Fil.fan. d-ri...diss. Toshkent: O'qituvchi. B–283.
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmatolingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. B–285.